

BADIY MATNDAGI OKKAZIONAL BIRLIK LARNING O'RNI.

Axmadaliyeva Odina

FarDU magistranti

Iskandarova Sharifa .

FarDU professori

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.10.2025

Revised: 05.10.2025

Accepted: 06.10.2025

Sizga havola qilinayotgan maqolada okkazional birliklar haqida ma'lumotlar keltirilib, misollar bilan tahlil qilinadi. Bunday birliklarga namunalar Is'hoqxon Ibrat asarlaridan tanlab olingan.

KALIT SO'ZLAR:

Poetik matnda ba'zan yozuvchi va shoirning "kashfiyoti" bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Bunday so'zlar tilshunoslikda okkazional birliklar deb nomlanadi. A.Hojiyev bu atamaga quyidagicha ta'rif beradi: "Mahsuldor bo'limgan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy mavzuning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm"²⁰. Demak, ushbu atama faqatgina yakka shaxsga tegishli bo'lgan yangi so'z hisoblanadi. Okkazional birlik- bu muayyan nutqiy vaziyatda, kontekst ta'sirida yuzaga keladigan, umumiyl til tizimida mayjud bo'limgan, lekin shu vaziyatda ma'lum ma'noni ifodalaydigan so'zlar yoki iboralar. Boshqacha qilib aytganda, ular bir martalik, individual foydalanish natijasida yaratiladi va faqat shu nutqiy vaziyatda tushunarli bo'ladi. Biroq okkazional birliklarni neologizmdan farqlab olish kerak. Bunda okkazionalizm neologizmning bir turi hisoblanib, faqat yakka shaxsga tegishli bo'ladi. Bunday birliklarni o'rganish yaqin yillardan

²⁰ Hojiyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati, Toshkent-b. 132.

boshlanganligi sababli, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar yetarlicha emas. Shundan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, okkazional birliklar shoirlar tomonidan to'satdan yaratilgan, ijodkorning individual mahsuli hisoblanib, yangilik bo'yog'iga ega leksemalar hisoblanadi.

Okkazional birliklar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Arastuning "Poetika" asarida uchratamiz. "Yangi so'z – hech qachon hech kim qo'llamagan, faqat shoir tomonidan qo'llanilgan, o'ylab topilgan so'zlardir. Masalan, "shoxlar" o'rniga "muguzchalar", "kohin" o'rniga "duogo'y" kabilarning qo'llanilishi shunga monanddir²¹. Ushbu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, okkazional birliklar individuallikka xos birliklar sanaladi. N.G.Babenko badiiy matnda qo'llangan okkazional birliklarni struktur – semantik jihatdan tahlil qiladi. Jumladan:

1. Fonetik okkazional birliklar;
2. Leksik okkazional birliklar;
3. Grammatik okkazional birliklar;
4. Semantik okkazional birliklar;
5. Kombinatsion okkazional birliklar (so'z birikmasi) kabi turlarga ajratadi.

Ibrat ijodida ham bu kabi birliklarni uchratish mumkin.

Uning nazdida yaqqol ravshandir,

Ki bu vayrona yotoqda (ya'ni dunyoda).

Ushbu parchada vayrona yotoq – dunyo so'zining o'rnida qo'llanilib, okkazional birlikka misol bo'la oladi. Ibrat vayrona yotoq so'zining qaysi ma'noda kelayotganligini qavs ichida izohlab ketadi, agar mana shu joyda dunyo so'zi berilmaganda, vayrona yotoq birligi qanday ma'no ifodalab kelayotganligini topish qiyin bo'lar edi. Shuningdek, vayrona yotoq birligi kombinatsion okkazionallikka misol bo'la oladi.

Simsiz tiligrom, temirsiz yo'l,

Avtomobellar yurar mashg'ul.

Ushbu parchada ham okkazional birlik ishtirok etgan bo'lib, simsiz tiligrom ko'rinishidagi so'z birikmasi holida kelgan. Ibrat telefon so'zini shunday aytta qolmay simsiz telegram deya nomlagan. Barchamizga ayonki, ilk telefonlar simli ko'rinishda

²¹ Qurbanova M. Milliy uyg'onish davri yozma manbalari tilida okkazional birliklarning qo'llanilishi. Filol.fan.d-ri. ...diss. – Farg'ona, 2023. -B.15.

bo'lgan. Keyinchalik zamon taraqqiy etib borgani sari simsiz telefonlar ixtiro qilingan. Ibrat bu so'zni shunchaki telefon deya aytib qo'ya qolmay yangi birlik "kashf qiladi".

...azbaroyi yangi va antiqa kitob ko'rmakka deb ani ko'b kishilar otini guhar shabchirog' degani shul emish, deb sodda kishilar ko'b taajjub qildilar.

"Mezon uz-zamon" asaridan olingen ushbu parchada ham okkazional birlik qatnashgan bo'lib, gavhar shabchirog' atamasi ostida berilgan. Shabchirog'- qorong'uda yoritish uchun foydalaniladigan fonar. Bu parchada ushbu so'z gavhar aniqlovchisi bilan kengayib, lampa ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan. Bu kabi atamalarning Ibrat ijodida uchrashi yozuvchining so'z boyligi naqadar keng ekanligidan dalolat beradi.

Mana har ovon va har zamon ahlini va ishini af'ollarini sinimatograf pardasi (kino ekranidan) ko'rungan yangi gazetadek har zamonda qancha minglar manu'oti jadida ko'rsatub, aholini aqvol va af'olini tabdil qilur.

Yuqoridagi parchada ham sinimatograf pardasi okkazional birligi ishtirok etgan. Ibrat bunday atamalarni o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun izohini ham keltirib o'tgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, okkazional birliklar poetik nutqni boyituvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bunday hodisa yakka shaxsga tegishli bo'lib, o'qirman hayolida mulohaza yuritishga chorlaydi. Bu kabi birliklarni qo'llash yozuvchi va shoirlarning mahoratidan darak beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Alimova Z. O'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'tgan o'zlashmalar lug'ati. Farg'ona - 2020.
2. Alimova Z. O'zbek tilidagi fors-tojikcha o'zlashmalarning fonetik, leksik-semantik xususiyatlari. Farg'ona 2020.
3. Pinxasov Y. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya, Toshkent 1969.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent